

28. Duff R.A., Marshall S.E. Crimes, Public Wrongs, and Civil Order // Criminal Law and Philosophy. – 2019. – Vol. 13. – No. 1. – P. 27–48. DOI: 10.1007/s11572-018-9457-x. Электронный ресурс. URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s11572-018-9457-x>.
29. Husak D.N. Overcriminalization: The Limits of the Criminal Law. – New York: Oxford University Press, 2008. – P. 55–119, 120–177. Электронный ресурс: Oxford Academic. URL: <https://academic.oup.com/book/5876>.
30. Tadros V. Wrongs and Crimes. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 4–5. Электронный ресурс: Google Books / Oxford University Press preview. URL: https://books.google.com/books/about/Wrongs_and_Crimes.html?id=IC2hDQAAQBAJ.
31. Simester A.P., von Hirsch A. Crimes, Harms, and Wrongs: On the Principles of Criminalisation. – Oxford: Hart Publishing, 2011. – P. 23–29, 35–88. Электронный ресурс: King's College London Research Portal. URL: <https://kclpure.kcl.ac.uk/portal/en/publications/crimes-harms-and-wrongs-on-the-principles-of-criminalisation/>.
32. Dubber M.D. An Introduction to the Model Penal Code. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – P. 37–38.
33. American Law Institute. Model Penal Code and Commentaries. – Philadelphia: American Law Institute, 1985.
34. Criminal Law Act 1967, c. 58, s. 1(1). Электронный ресурс: legislation.gov.uk. URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1967/58/section/1>.
35. Criminal Code of the Federal Republic of Germany (Strafgesetzbuch, StGB), in the version published on 13 November 1998, Federal Law Gazette I, p. 3322, as last amended by Article 2(2) of the Act of 7 November 2024, Federal Law Gazette 2024 I No. 351. Электронный ресурс: Federal Ministry of Justice. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html.
36. Code pénal de la République française. Электронный ресурс: Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070719/.
37. Уголовный кодекс Российской Федерации: Федеральный закон от 13 июня 1996 г. № 63-ФЗ; в ред. Федерального закона от 25 июня 1998 г. № 92-ФЗ // Собрание законодательства Российской Федерации. – 1996. – № 25. – Ст. 2954; 1998. – № 26. – Ст. 3012.
38. О реформе Уголовного кодекса Российской Федерации: публикации 2009–2019 гг. // Избранные труды / сост. Е.Н. Карабанова, И.А. Стаценко; вступ. ст. О.С. Капинус. – Москва: Университет прокуратуры Российской Федерации, 2019. – 384 с.
39. Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1996. – 269 с.
40. Келина С.Г. Проблемы уголовной ответственности. – Москва: Норма, 2004. – 384 с.
41. Келина С.Г. Общее понятие и виды освобождения от уголовной ответственности // Труды. Т. 26: Проблемы уголовной ответственности. – 1972. – С. 3–48.
42. Morris T. Crime and Criminal Justice Since 1945. – Oxford, UK; New York, NY, USA: Basil Blackwell, 1989. – 198 p.
43. Berman H.J. Law and Revolution: The Formation of the Western Legal Tradition. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1983. – P. 185–188. https://politicayderechoenlaedadmedia.wordpress.com/wp-content/uploads/2016/07/berman_law_and_revolution_the_formatibookzz-org-1.pdf.
44. Beznosova J.V., Kondratyeva A.N., Romanovskaya V.B., Kurzenin E.B. Crime and Punishment, Sin and Retribution: From the History of Religious and Legal Traditions of East and West // Mediterranean Journal of Social Sciences. – 2015. – Vol. 6. – No. 6 S2. – P. 662–668. DOI: 10.5901/mjss.2015.v6n6s2p662. <https://www.richtmann.org/journal/index.php/mjss/article/view/8142>.
45. Уголовный кодекс Российской Федерации. В ред. Федерального закона от 25.06.1998 N 92-ФЗ.
46. Избранные труды. О реформе Уголовного кодекса Российской Федерации (публикации 2009–2019 гг.) / [сост. Е.Н. Карабанова, И.А. Стаценко; вступит. ст. О.С. Капинус]; Ун-т прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2019. – 384 с. – (Научные труды ученых Университета прокуратуры Российской Федерации).



TOVLAMACHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHNI TASHKILIY-HUQUQIY TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Irisbekov Ulug'bek Askarbekovich

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot
instituti yetakchi ilmiy xodimi

Исследовательский институт
криминологии Республики
Узбекистан, ведущий научный
сотрудник

Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, leading researcher

Annotatsiya. Mazkur maqolada tovlamachilik jinoyatlarini oldini olishni tashkiliy-huquqiy ta'minlashning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Unda zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tovlamachilik jinoyatlarining shakl va usullari o'zgarib borayotgani, xususan, kibermuhitda sodir etilayotgan tovlamachilik holatlari ortib borayotgani asoslantirgan. Tovlamachilik profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmi normativ-huquqiy, institutsional, axborot-tahliliy, viktimologik hamda raqamli xavfsizlik elementlari nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilingan hamda takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari tovlamachilik jinoyatlarining latentsligini kamaytirish, ularni barvaqt aniqlash va profilaktika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tovlamachilik, tovlamachilik profilaktikasi, tashkiliy-huquqiy ta'minlash, kibertovlamachilik, viktimologik profilaktika, raqamli xavfsizlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, sun'iy intellekt, profilaktika subyektlari, latent jinoyatchilik.

ISSUES OF IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE PREVENTION OF EXTORTION CRIMES

Abstract. This article analyzes current issues related to improving the organizational and legal framework for the prevention of extortion crimes. The study substantiates that under conditions of modern globalization and digital transformation, the forms and methods of extortion are changing, particularly due to the increasing number of extortion cases committed in cyberspace. The organizational and legal mechanism for extortion prevention is comprehensively examined from the perspectives of regulatory, institutional, information-analytical, victimological, and digital security elements, and a number of practical proposals are developed. The findings of the study are aimed at reducing the latency of extortion crimes, ensuring their early detection, and increasing the effectiveness of preventive activities.

Keywords: extortion, prevention of extortion, organizational and legal support, cyber extortion, victimological prevention, digital security, crime prevention, artificial intelligence, prevention subjects, latent crime.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo'lib, an'anaviy jinoyatlarning mazmun-mohiyati va ko'rinishlari o'zgarib bormoqda. Ana shunday ijtimoiy xavfli qilmishlardan biri tovlamachilik jinoyati bo'lib, uning ijtimoiy xavfi mulkiy manfaat orttirish maqsadida shaxsga nisbatan ruhiy bosim o'tkazish, tahdid qilish, ma'lumotlarni oshkor etish yoki mulkka zarar yetkazishda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tovlamachilikning an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda uning kibermakonda sodir etiladigan yangi shakllari ham keng tarqalmoqda.

Xalqaro tahlillar mazkur muammoning dolzarbligi yil sayin ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko'ra, butun dunyo bo'yicha tovlamachi-dastur (Ransomware-as-a-Service, RaaS) guruhlar tomonidan 7 307 ta tashkilot rasman jabrlanuvchi sifatida qayd etilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 45 foizga oshgan. Shu bilan birga, faol tovlamachi-dastur guruhlar soni 98 tadan 138 taga yetgan va bir yil ichida 41 foizlik o'sish qayd etilgan. O'rtacha hisobda har oyda 609 ta tashkilot raqamli tovlamachilik qurboniga aylangan [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy tovlamachilik endilikda faqatgina ma'lumotlarni shifrlash bilan cheklanib qolmay, balki ma'lumotlarni o'g'irlash, ularni ommaviy oshkor qilish bilan tahdid qilish, xizmat ko'rsatish tizimlarini izdan chiqarish hamda ko'p bosqichli bosim mexanizmlarini qo'llash orqali amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda tovlamachilikning sodir etilish usullari murakkablashib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirilayotgan holatlar ko'paymoqda. Bu esa jinoyatlarning latentlik darajasini oshirib, ularni barvaqt aniqlash va oldini olish jarayonini qiyinlashtirmoqda. Kriminologik tadqiqotlarga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarda ishtirok etganlarning 48,5 foizi tovlamachilik jinoyatlarining atigi 20 foizgacha bo'lgan qismi rasman aniqlanishini, qolgan qismi esa latent holatda saqlanib qolayotganini ta'kidlagan [2; 75-b.].

Tovlamachilikning oldini olish samaradorligi nafaqat jinoyat qonunchiligining mukammalligiga, balki profilaktika subyektlari faoliyatining muvofiqlashtirilganligi, axborot almashinuvi tizimining samaradorligi, aholi bilan hamkorlik mexanizmlarining rivojlanganligi hamda jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimining ishonchliligiga ham bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganda, mazkur sohada samarali natijalarga erishish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Mazkur yondashuv doirasida tovlamachilik jinoyatlarini oldini olishning tashkiliy-huquqiy ta'minlanganligi masalasi muhim o'rin tutadi. Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni *tashkiliy-huquqiy ta'minlash* deganda davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi subyektlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mazkur turdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlash, ularning sodir etilishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qayta sodir etilishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Zamonaviy sharoitda tovlamachilikning sodir etilish mexanizmlari o'zgarib borayotgani mazkur sohada profilaktika faoliyatini faqat jinoiy javobgarlik choralari bilan cheklab qo'yish samarali emasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilayotgan tovlamachilik holatlari profilaktikaning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni tashkiliy-huquqiy ta'minlash tizimi o'zaro uzviy bog'langan normativ-huquqiy, institutsional va amaliy-profilaktik komponentlar integratsiyasidan tashkil topgan kompleks tizim hisoblanadi.

Birinchidan, *normativ-huquqiy baza* mazkur sohaning huquqiy poydevorini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalish Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun, kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hamda sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, tovlamachilik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 165-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilgan qonunchilik islohotlari mazkur jinoyat tarkibini zamonaviy tahdidlar, jumladan raqamli muhitda sodir etiladigan huquqbuzarliklar bilan bog'liq holatlar hisobga olingan holda takomillashtirish tendensiyasini namoyon etmoqda [3]. Jumladan, 2024 yilda kiritilgan o'zgartirishlar orqali axborot resurslariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatish, ularni to'sib qo'yish, o'zgartirish yoki yo'q

qilish kabi harakatlar bilan bog'liq holatlar jinoyat tarkibiga kiritilishi zamonaviy jinoyatchilik dinamikasini inobatga olgan muhim huquqiy qadam hisoblanadi.

Shu bilan birga, 165-moddaning amaldagi tahriri raqamli muhitda sodir etilayotgan tovlamachilikning barcha ko'rinishlarini to'liq qamrab olmasligi mumkin. Shu bois, kelgusida ushbu normani takomillashtirish jarayonida "kibertovlamachilik", "raqamli mulk" hamda zamonaviy shantaj usullarini alohida huquqiy kategoriya sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlashga va jinoyatchilikning yangi shakllariga qarshi kurash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, *profilaktika subyektlarining jinoyatlarni oldini olishdagi ishtirokini ta'minlash* muhim ahamiyatga ega. Jinoyatlarning oldini olish subyektlari orasida yuqori samaradorlik bo'yicha ichki ishlar organlari – 67,6 foiz, prokuratura organlari – 25,4 foiz, ta'lim muassasalari – 23,4 foiz, diniy tashkilotlar – 20,3 foiz, jamoat tuzilmalari – 19,7 foiz, sud organlari esa 17 foiz baholangan [4]. Ichki ishlar organlari, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, kiberxavfsizlik bo'linmalari hamda mahalla instituti o'rtasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etish maqsadida profilaktika subyektlarining vakolatlarini institutsional jihatdan aniqlashtirish zarur.

Shu munosabat bilan, raqamli tovlamachilik va boshqa kiberjinoyatlarga qarshi kurashish sohasida yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida "Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va tovlamachilik profilaktikasi bo'yicha idoralararo koordinatsiya markazi"ni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur markazning asosiy vazifalari:

- kibermuhitda tovlamachilik holatlarini monitoring qilishni markazlashtirish;
- profilaktika subyektlari o'rtasida axborot almashinuvini tezkor ta'minlash;
- raqamli tahdidlar bo'yicha yagona tahliliy bazani shakllantirish;
- tezkor-qidiruv va profilaktika choralarini muvofiqlashtirish;
- aholi bilan kiberxavfsizlik bo'yicha profilaktik ishlar samaradorligini oshirish.

Bunday institutsional yondashuv profilaktika subyektlari faoliyatida takrorlanish va vakolatlar kesishuvini kamaytiradi, jinoyatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Taklif etilayotgan "Idoralararo koordinatsiya markazi" modeli mazmunan AQSHning IC3 modeli [5], Buyuk Britaniyaning NCSC tizimi [6], Estoniyaning CERT tizimi tajribalariga yaqin hisoblanadi [7].

Bu modellarning umumiy jihati shundaki, kibertovlamachilik va raqamli tahdidlar bir organ doirasida emas, balki idoralararo markazlashgan koordinatsiya asosida samarali bartaraf etiladi.

Uchinchidan, *axborot-tahlil tizimi* profilaktika samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Jinoyatlarni tahlil qilish, xavf guruhlarini aniqlash va elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkonini beradi. Masalan, qator davlatlarda sun'iy intellekt texnologiyalari orqali internet tarmoqlarida tovlamachilikka xos bo'lgan tahdidli xatti-harakatlar avtomatik tahlil qilinib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga signal yuborish amaliyoti joriy etilgan. Axborot-tahlil tizimlarini yanada rivojlantirish va profilaktika samaradorligini oshirish maqsadida huquqbuzarliklar, xususan, tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishda sun'iy intellekt (AI) asosidagi avtomatlashtirilgan monitoring platformasini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur platforma:

internet va ijtimoiy tarmoqlardagi shubhali xatti-harakatlarni tahlil qilish;

tovlamachilikka xos tahdidli kontentni (shantaj, ma'lumot bilan qo'rqitish, raqamli bosim) aniqlash;

xavf darajasi yuqori holatlar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga avtomatik signal yuborish imkoniyatini beradi.

Bu esa jinoyatlarning faqat sodir etilgandan keyin emas, balki sodir etilish ehtimoli yuqori bo'lgan bosqichdayoq barvaqt oldini olish va profilaktika subyektlari faoliyatini tezkor hamda maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, *viktimologik himoya mexanizmlari* tovlamachilik profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tovlamachilik qurbonlarining muayyan qismi jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasligi natijasida jinoyat latent holatda qolib ketmoqda. Shu sababli jabrlanuvchilarga huquqiy maslahat berish, psixologik ko'mak ko'rsatish va ularning xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Viktimologik himoya mexanizmlarini tovlamachilik profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yanada takomillashtirish maqsadida, jabrlanuvchilarga qaratilgan *kompleks qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish* maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu tizim doirasida tovlamachilik qurbonlariga:

- ✓ huquqiy maslahat berish xizmatlarini kengaytirish;
- ✓ psixologik rehabilitatsiya va ishonch telefonlari orqali tezkor yordam ko'rsatish;
- ✓ shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash (vaqtinchalik himoya, raqamli xavfdan himoya choralari)

mexanizmlarini kuchaytirish nazarda tutilishi lozim.

Mazkur yondashuv jabrlanuvchilarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga bo'lgan ishonchini oshiradi, jinoyatlarning latent darajasini kamaytiradi hamda tovlamachilikning barvaqt aniqlanishi va oldi olinishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, *jamoatchilik ishtirokini ta'minlash* profilaktika samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasida aholini huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonlariga jalb qilish, mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish hamda profilaktik axborot kampaniyalarini tashkil etish keng tarqalgan. Ayniqsa, AQSH va Germaniya tajribasida fuqarolarning o'zini o'zi himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, jinoiy xavf haqida aholini o'z vaqtida xabardor qilish va profilaktika choralarida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, AQSH amaliyotida "Predictive Policing" (prognozlashtirilgan profilaktika) modeli qo'llanilib, unda jinoyatchilikka oid statistik ma'lumotlar, geografik joylashuv va ijtimoiy omillar tahlil qilinishi orqali xavf yuqori bo'lgan hududlar oldindan aniqlanadi hamda profilaktika choralariga aholi va mahalliy hamjamiyatlarni maqsadli jalb qilish imkoniyati yaratiladi [5]. Bu esa profilaktika resurslarini samarali taqsimlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, *raqamli xavfsizlik choralari* zamonaviy tovlamachilik profilaktikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Amaliyotda ikki bosqichli autentifikatsiya, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli savodxonlikni oshirish hamda ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz harakatlanish qoidalarini targ'ib qilish profilaktikaning muhim vositalari sifatida qaralmoqda. Raqamli xavfsizlik choralari tovlamachilik profilaktikasining samarali vositasi sifatida yanada rivojlantirish maqsadida aholi o'rtasida *kompleks raqamli himoya standartlarini joriy etish* maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu doirada:

- ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA)dan majburiy foydalanishni keng targ'ib qilish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha minimal xavfsizlik talablarini belgilash;
- fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muloqot va harakatlanish qoidalarini tizimli ravishda targ'ib qilish nazarda tutilishi lozim.

Belarus tajribasida huquqbuzarliklardan jabrlanish sabablari va shart-sharoitlarini doimiy monitoring qilish hamda profilaktika subyektlari o'rtasida ma'lumot almashishning integratsiyalashgan modeli joriy qilingan[2; 124-b]. Bu orqali muayyan toifadagi fuqarolarning viktimlashuv xavfi oldindan baholanadi va profilaktik choralari belgilanadi.

Ushbu choralari tovlamachilikning internet muhitida sodir etilish xavfini kamaytiradi, shaxsiy ma'lumotlardan qonunga xilof foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi hamda profilaktika tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib ta'kidlash joizki, tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni tashkiliy-huquqiy ta'minlash faqat jinoiy javobgarlik choralari bilan cheklanib qolmasdan, balki huquqiy tartibga solish, muassasalararo hamkorlik, raqamli xavfsizlik, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va viktimologik yondashuvlarni kompleks qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bunday kompleks yondashuv, o'z navbatida, tovlamachilik jinoyatlarining latentligini kamaytirish, ularni barvaqt aniqlash hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni tashkiliy-huquqiy ta'minlash bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tahdidlar, ayniqsa, raqamli muhitdagi jinoyatchilik profilaktika tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Mazkur sohada tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish, huquqiy asoslarni kuchaytirish, profilaktika subyektlari o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlash va viktimologik yondashuvlarni keng joriy etish tovlamachilikning latentligini kamaytirish hamda uning oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. State of Ransomware 2025: Annual Report. https://www.breachsense.com/ransomware-reports/annual-report-2025/?utm_source=chatgpt.com.
2. Irisbekov U.A. Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri ... dis. – T., 2025. – 75-b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-y.) <https://www.lex.uz/acts/111453>.
4. Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2020. – 31-b.
5. Квашиш Е.В., Морозов Н.А. Полиция Японии: организация, функции, эффективность // Научный портал России. – 2015. – №1.
6. Ксеник А.А. Зарубежный опыт виктимологической профилактики преступлений // Молодой ученный. – 2017. – №12. – С.412. <https://moluch.ru>.
7. CISA Issues Binding Operational Directive 26-04: Prioritizing Security Updates Based on Risk. <https://www.cisa.gov/>.

